

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



JIZZAX VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

2022-yil uchun



Fan va innovatsiya



Hozirgi kunda ilm-fan va innovatsiyalar jamiyat rivojlanishida va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy va innovatsion sohalarning hozirgi holati va tendentsiyalarini tushunish qabul qilingan qarorlarning samaradorligini baholashning ajralmas vositasidir.

Ushbu press-relizda sizning e'tiboringizga fan va innovatsiyalar sohasidagi holat va tendentsiyalarni baholashga imkon beradigan asosiy statistik ko'rsatkichlar taqdim etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar xarajatlari, innovatsion faoliyat darajasi, ilmiy va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi hamkorlikva ilmiy xodimlarning ta'lim darajasi va malakasi to'g'risida ma'lumot beradi.

Ushbu ko'rsatkichlarni tushunish va ularni tahlil qilish hozirgi holatni aniqlash, samaradorlik va innovatsion salohiyatni oshirish yo'nalishlarini aniqlash uchun zarur vositadir. Ular rivojlanishning kuchli va potentsial sohaslarini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, asosli qarorlar qabul qilish va samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu press-relizning maqsadi sanab o'tilgan ko'rsatkichlarning har biri va ularning ilm - fan va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ahamiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berishdir. Ushbu press-reliz ilm-fan va innovatsiyalar sohasida qarorlar qabul qilish va strategiyalarni rejalashtirish uchun foydali ma'lumot beruvchi manba bo'ladi.


JIZZAX VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Jizzax viloyatida fan sohalari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi-tayanch doktorantura institutlarining asosiy ko'rsatkichlari
(2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)

Tayanch doktorantura institutlari soni, birlik:




Tabiiy fanlar




Ijtimoiy fanlar




Qabul qilingan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni, kishi:



Tabiiy fanlar




Ijtimoiy fanlar




Ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni 1 ta sektorda ko'rsatilgan

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)




Tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni

(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



2022-yil oxiriga tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni 1 tani tashkil etgan bo'lib, 2019- yilda bu ko'rsatkich 2 tani tashkil etgan. 2022-yil oxiriga nisbatan pasayish ko'rsatkichi 50 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyati bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni (2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)

2022-yilda viloyatimizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 1 tani tashkil etib, u oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 21 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 10 nafarni va bitiruvchilar 5 nafarni tashkil etgan.



Jizzax viloyati bo'yicha doktoranturada tahsil oluvchilar soni (tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



Jizzax viloyati bo'yicha doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni (2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

Jami tashkilotlar soni



2022-yilda jami tashkilotlar soni 1 tani tashkil etib u oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 2 tani tashkil etgan. Pasayish sur'ati ko'rsatkichi 50 % ni tashkil etdi.

Bitirgan fan doktori darajasi
izlanuvchilarida ayollar soni

kishi



Bitirgan fan doktori darajasi
izlanuvchilarida erkaklar soni


kishi




JIZZAX VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Jizzax viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan xodimlar soni

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



Sektorlar bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini
bajargan xodimlar soni
(2022-yiling yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)




oliy ta'lim sektori



Ayollar




Erkaklar



D


77,7%



D

22,3%

Jizzax viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni *) (2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Jizzax viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni 12 tani tashkil etdi. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, shundan eng yuqori ko'rsatkichlar Arnasoy tumanida 6 ta va eng past ko'rsatkichlar Do'stlik, Zomin, Zarbdor hamda Paxtakor tumanlarida 1 tadan tashkil etilgan.



*) Fermer xo'jaliklari ma'lumotini qo'shgan holda


Jizzax viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Jizzax viloyati bo'yicha korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlariga qarab ajratib olinadi. Ularda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni asosan ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami soniga nisbatan 66,0 % ni tashkil etdi.


O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Innovatsiya ta'rifi bo'yicha, tashkilot uchun yangi, ichki bozor uchun yangi yoki butun dunyo uchun yangi bo'lgan ma'lum miqdordagi yangilikni o'z ichiga oladi. 2022-yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha jami soni 63 ta bo'lib, shundan yuqori ko'rsatkichlar Sharof Rashidov tumanida 20 ta va eng past ko'rsatkich Baxmal, Mirzacho'l, Paxtakor tumanlarida 1 tadan tashkil etgan.



Jizzax viloyati bo'yicha joriy qilingan jami innovatsiyalar soni (2022-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Innovatsiyalar 3 turga bo'linadi. Bular texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalardir. 2022-yilda jami joriy qilingan innovatsiyalar 18 tani tashkil etib, bularning barchasi texnologik innovatsiyalardir. Innovatsion faoliyat – g'oyalar transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni bozor uchun joriy etish bilan hamohang bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim – doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi.

Tayanch doktorantura – falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli.

Doktorantura – fan doktori (Dostor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli

Ilmiy-tadqiqot xodimlari – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo'llashning yangi yo'nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxslar.

Innovatsiya – ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi, amalga oshirish jarayonida yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmatlar yoki jarayon, shuningdek, ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy qarorlari, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xarakterdagi, texnologiyalarning, mahsulotlarning va xizmatlarning bozorlarda yangilanishiga yordam berilishi tushuniladi.



**Press-relizni tayyorlash
uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



Jizzax viloyati
statistika boshqarmasi



Manzil: 100170, Jizzax sh.
To'qimachilar ko'chasi, 7-uy



Тел.: +99872 222-51-36



e-mail: info@jizzaxstat.uz



www.jizzaxstat.uz



facebook.com/jizzaxstatcom